(20). Виноградов В.В. О теории новеллы. Борьба за стиль. Ленинград, 1937, с. 5–62.
(21). Выготский Л.С. Психология искусства. Москва, "Искусство", 1968, 576 с.
(22). Poe E.A. The Philosophy of Composition. Philadelphia: Graham's Magazine, 1846, 30 p.
(23). James H. The Art of Fiction. Boston, Macmillan, 1884, 68 p.

Murodova Sarvigul Komil qizi (mustaqil tadqiqotchi)

INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA DINIY-ARXETIPIK OBRAZLARNING NAZARIY ASOSLARI VA TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek adabiyotida uchraydigan diniy-arxetipik obrazlarning nazariy asoslari hamda tipologik xususiyatlari qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Maqolada diniy-arxetipik obrazlarning badiiy matndagi semantik, ramziy va estetik funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, diniy-arxetipik obrazlar jahon xalqlari badiiy tafakkurida shakllangan universal modellar bo'lib, ayni paytda har bir milliy adabiyotning tarixiy, diniy va madaniy tajribasi asosida o'ziga xos poetik xususiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar*: arxetip, diniy obraz, diniy-arxetipik obraz, qiyosiy adabiyotshunoslik, mifopoetika, Jung, Frye, ingliz adabiyoti, o'zbek adabiyoti, tipologiya, ramz.*

Муродова Сарвигуль Комил кизи (Независимый исследователь)

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЛИГИОЗНО-АРХЕТИПИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация*. В данной статье с позиций сравнительного литературоведения исследуются теоретические основы и типологические особенности религиозно-архетипических образов в английской и узбекской литературе. Анализируются семантические, символические и эстетические функции религиозно-архетипических образов в художественном тексте. Результаты исследования показывают, что религиозно-архетипические образы представляют собой универсальные модели, сформировавшиеся в художественном мышлении народов мира, и вместе с тем приобретают своеобразные поэтические особенности под влиянием исторического, религиозного и культурного опыта каждой национальной литературы.*

Ключевые слова*: архетип, религиозный образ, религиозно-архетипический образ, сравнительное литературоведение, мифопоэтика, Юнг, Фрай, английская литература, узбекская литература, типология, символ.*

Murodova Sarvigul Komil qizi (Independent researcher)

THEORETICAL FOUNDATIONS AND TYPOLOGICAL FEATURES OF RELIGIOUS-ARCHETYPAL IMAGES IN ENGLISH AND UZBEK LITERATURE

Annotation*. This article examines the theoretical foundations and typological features of religious-archetypal images in English and Uzbek literature from the perspective of comparative literary studies. It analyzes the semantic, symbolic, and aesthetic functions of religious-archetypal images in literary texts. The findings demonstrate that religious-archetypal images constitute universal models shaped within the artistic consciousness of the peoples of the world, while at the same time acquiring distinctive poetic characteristics under the influence of the historical, religious, and cultural experience of each national literature.*

Keywords*: archetype, religious image, religious-archetypal image, comparative literary studies, mythopoetics, Jung, Frye, English literature, Uzbek literature, typology, symbol.*

Kirish (Introduction). XX–XXI asr adabiyotshunosligida arxetip nazariyasi badiiy matnlarni tahlil qilishning samarali metodologik yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. "Arxetip" tushunchasi insoniyatning tarixiy tajribasi, madaniy xotirasi va jamoaviy ongsizligida shakllangan universal ramziy modellarni ifodalaydi. Mazkur nazariya, dastlab, psixologiya sohasida qo'llanilgan bo'lsa-da, keyinchalik, adabiyotshunoslik, mifopoetika va madaniyatshunoslik tadqiqotlarida keng foydalanila boshlandi.

Diniy-arxetipik obrazlar jahon adabiyotining barcha davrlarida muhim badiiy vazifani bajargan. Payg'ambar, najotkor, donishmand, qurbon va shayton kabi obrazlar insonning ezgulik va yovuzlik haqidagi tasavvurlarini, ma'naviy izlanishlarini hamda axloqiy tanlov jarayonini ifodalovchi poetik modellar sifatida shakllangan. Ingliz va o'zbek adabiyotlari turli tarixiy va diniy-madaniy sharoitlarda rivojlangan bo'lsa-da, ularda uchraydigan diniy-arxetipik obrazlar o'zaro tipologik yaqinlikka ega. Ingliz adabiyotida mazkur obrazlar asosan xristian diniy an'analari, Bibliya motivlari va G'arb mifologik tafakkuri bilan bog'liq holda shakllangan bo'lsa, o'zbek adabiyotida ular Qur'on qissalari, islomiy tafakkur va tasavvuf falsafasi bilan uyg'unlashgan holda rivojlangan. Diniy-arxetipik obrazlarning qiyosiy-tipologik tadqiqi zamonaviy adabi-

yotshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Cababi ushbu obrazlar, bir tomondan, umuminsoniy ma'naviy tajribani aks ettirsa, ikkinchi tomondan, har bir xalqning tarixiy xotirasi va milliy poetik tafakkurini namoyon etadi.

Diniy-arxetipik obrazlarning ingliz va o'zbek adabiyotidagi badiiy talqinini qiyosiy o'rganish ushbu obrazlarning nafaqat diniy tafakkur mahsuli, balki insoniyatning umumiy ma'naviy tajribasini ifodalovchi universal poetik modellar ekanligini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqotda diniy-arxetipik obrazlar qiyosiy adabiyotshunoslik, mifopoetika va arxetip nazariyasi asosida tahlil qilinib, ularning shakllanish manbalari, badiiy funksiyalari hamda milliy adabiyotlarda namoyon bo'lish xususiyatlari aniqlandi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Diniy-arxetipik obrazlarni ilmiy o'rganishda Karl Gustav Jungning arxetip nazariyasi muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Jung arxetiplarni insoniyatning jamoaviy ongsizligida mavjud bo'lgan qadimiy-ruhiy modellar sifatida izohlaydi. Uning fikricha, insoniyat tarixining turli davrlarida yaratilgan miflar, diniy timsollar va badiiy obrazlar aynan shu universal psixik strukturalarning namoyon bo'lish shaklidir [1]. Shu jihatdan, Payg'ambar, najotkor, donishmand, qurbon va Shayton kabi obrazlar alohida diniy tizimlarga mansub bo'lsa-da, ularning semantik asosida insonning ezgulik, yovuzlik, najot va ma'naviy kamolot haqidagi umumiy tasavvurlari mujassamlashadi. Jung nazariyasiga asoslangan holda olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, diniy-arxetipik obrazlar tayyor badiiy shakllar emas, balki turli tarixiy va madaniy sharoitlarda yangi mazmun kasb etuvchi universal modellar hisoblanadi. Masalan, Najotkor arxetipi xristian madaniyatida Iso Masih obrazi orqali namoyon bo'lsa, Sharq adabiyotida u, ko'pincha, komil inson, avliyo yoki ma'naviy yetuk shaxs timsolida ifodalanadi. Bu holat arxetiplarning milliy adabiy an'analar ta'sirida transformatsiyaga uchrashini ko'rsatadi.

Diniy-arxetipik obrazlarni adabiy jarayon nuqtayi nazaridan o'rganishda Northrop Fryening arxetipik tanqid konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Uning fikricha, diniy ramzlar vaqt o'tishi bilan sof diniy mazmun doirasidan chiqib, umumiy madaniy va estetik belgilar tizimiga aylanadi. Shu sababli Bibliya, Qur'on qissalari va boshqa diniy manbalarda shakllangan obrazlar keyingi davr adabiyotida ham faol yashab keladi. Ingliz adabiyotida diniy-arxetipik obrazlarning rivojlanishi, asosan, xristian diniy tafakkuri va Bibliya an'analari bilan bog'liq. Ayniqsa, John Miltonning "Paradise lost" asari ushbu jarayonning yuksak namunasi hisoblanadi. Asarda Odam Ato va Momo Havo, shayton, ilohiy adolat va najot kabi diniy-arxetipik modellar falsafiy mazmun bilan boyitilgan [2]. Milton diniy syujetdan foydalanib, inson erkinligi, axloqiy tanlov, gunoh va mas'uliyat kabi umuminsoniy masalalarni badiiy tadqiq etadi. Milton yaratgan Satan obrazi an'anaviy diniy talqindagi oddiy yovuzlik timsolidan murakkab psixologik obraz darajasiga ko'tarilgan. Ushbu obrazda kibr, hokimiyatga intilish, isyon va ma'naviy qulash kabi inson tabiatidagi salbiy jihatlar mujassamlashgan. Bu jihat Jungning "shadow" (soya) arxetipi bilan uyg'unlashadi, chunki shayton obrazi inson ruhiyatining inkor etilgan va nazorat qilinmagan tomonlarini ifodalovchi ramziy model sifatida namoyon bo'ladi.

XX asr ingliz adabiyotida diniy-arxetipik obrazlar yangi badiiy shakllarda davom etdi. C.S.Lewisning "The Chronicles of Narnia" asaridagi Aslan obrazi najotkor arxetipining zamonaviy talqinidir. Aslan obrazi kuch, adolat, rahm-shafqat va fidoyilik kabi fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Uning qurbonligi va qayta tirilishi xristian an'analaridagi Masih obraziga yaqin bo'lsa-da, yozuvchi ushbu obraz orqali umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni ifodalashga intiladi [3].

J R.R.Tolkien ijodida esa diniy-arxetipik obrazlar mifologik va falsafiy tizim bilan uyg'unlashadi. "The Lord of the Rings" asaridagi Frodo obrazi qurbon arxetipining zamonaviy ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. U umumiy manfaat uchun shaxsiy tinchligi, xavfsizligi va farovonligidan voz kechadi. Gandalf obrazi esa Donishmand arxetipining badiiy ifodasi bo'lib, qahramonlarga yo'l ko'rsatuvchi, ularning ma'naviy rivojlanishiga yordam beruvchi kuch sifatida tasvirlanadi [4]. Diniy-arxetipik obrazlarning rivojlanishini tushuntirishda Joseph Campbellning "Qahramon sayohati" konsepsiyasi ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Campbell turli xalqlar mifologiyasi va diniy rivoyatlarida takrorlanuvchi syujet modelini aniqlab, qahramonning chaqiriqni qabul qilishi, sinovlardan o'tishi, qurbonlik qilishi va yangi tajriba bilan qaytishini universal struktura sifatida izohlaydi [5]. Ushbu nazariya ingliz va o'zbek adabiyotidagi ko'plab diniy-arxetipik obrazlarni qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. O'zbek adabiyotida diniy-arxetipik obrazlarning shakllanishi islom dini, Qur'on qissalari va tasavvuf falsafasi bilan chambarchas bog'liq. Sharq adabiy tafakkurida diniy obrazlar, ko'pincha, insonning ichki poklanishi, ruhiy kamoloti va komillikka erishish jarayonini ifodalovchi ramziy tizim sifatida shakllangan. Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asari o'zbek adabiyotida diniy-arxetipik obrazlarning dastlabki yirik namunalaridan biri hisoblanadi. Asarda payg'ambarlar obrazi insoniyatga hidoyat beruvchi, sabr va e'tiqod timsoli sifatida talqin qilinadi. Ushbu obrazlar

orqali insonning ma'naviy taraqqiyoti, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash hamda ilohiy haqiqatga intilish masalalari yoritiladi [6]. Alisher Navoiy ijodida esa diniy-arxetipik obrazlar yanada murakkab falsafiy mazmun kasb etadi. Navoiy asarlarida Payg'ambar, komil inson, pir va oshiq obrazlari tasavvufiy tafakkur bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Shoir ijodidagi komil inson konsepsiyasi insonning axloqiy va ruhiy yuksalish modelini ifodalovchi muhim arxetipik struktura hisoblanadi [7]. Tasavvuf adabiyotida diniy-arxetipik obrazlarning asosiy xususiyati shundaki, ular tashqi voqelikdan ko'ra insonning ichki ruhiy olamini aks ettirishga yo'naltirilgan. Pir yoki murshid obrazi Donishmand arxetipining Sharqona ko'rinishi bo'lib, u insonni ma'naviy kamolot sari yetaklovchi rahnamo sifatida tasvirlanadi. Oshiq obrazi esa inson ruhining Haqiqat sari intilishini ifodalovchi ramziy model hisoblanadi [8]. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek adabiyotidagi diniy-arxetipik obrazlar o'rtasidagi asosiy farq ularning diniy-falsafiy talqinida namoyon bo'ladi. Ingliz adabiyotida ushbu obrazlar ko'proq individual qahramonning tanlovi, erkinligi va axloqiy mas'uliyati bilan bog'langan bo'lsa, o'zbek adabiyotida ular jamoaviy ma'naviy qadriyatlar, ruhiy poklanish va komillik g'oyalari bilan uyg'unlashadi.

Shu sababli diniy-arxetipik obrazlarni faqat ma'lum bir diniy an'anaga tegishli hodisa sifatida emas, balki insoniyat badiiy tafakkurining universal shakli sifatida baholash mumkin. Ularning har bir milliy adabiyotdagi ko'rinishi esa xalqning tarixiy xotirasi, diniy dunyoqarashi va madaniy tajribasi bilan belgilanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek adabiyotidagi diniy-arxetipik obrazlarning shakllanishi turli diniy-madaniy asoslarga ega bo'lsa-da, ularning badiiy funksiyasi va semantik mohiyatida muayyan tipologik umumiylik mavjudligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida diniy-arxetipik obrazlarning asosiy tiplari sifatida Payg'ambar, Najotkor, Donishmand, Qurbon, Shayton va Muqaddas ona arxetiplari ajratildi. Ushbu obrazlar turli adabiy an'analarda turlicha badiiy shaklga ega bo'lsada, ularning asosiy vazifasi insonning ma'naviy izlanishi, axloqiy tanlovi va ruhiy kamolot jarayonini ifodalashdan iborat ekanligi belgilandi.

Olib borilgan tahlillar natijasida Payg'ambar arxetipi ingliz va o'zbek adabiyotida ma'naviy rahnamolik funksiyasini bajarishi aniqlandi. Ingliz adabiyotida ushbu arxetip asosan Bibliya an'analari va xristian diniy tafakkuri asosida shakllangan bo'lsa, o'zbek adabiyotida Qur'on qissalari va islomiy ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq holda rivojlangan. Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida payg'ambarlar obrazi insoniyatga hidoyat beruvchi, sabr va e'tiqod timsoli sifatida tasvirlanadi. Alisher Navoiy ijodida esa Muhammad (s.a.v.) obrazi komillik, adolat va ma'rifat timsoli sifatida talqin qilinadi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, Najotkor arxetipi har ikki adabiy an'anada ham yangilanish va poklanish g'oyalarini ifodalaydi. Ingliz adabiyotida mazkur arxetip xristian diniy modeli asosida shakllangan bo'lib, C.S Lewisning Aslan obrazi orqali zamonaviy badiiy shaklga ega bo'lgan. O'zbek adabiyotida esa najot tushunchasi ko'proq komil inson va ruhiy yetuklik konsepsiyasi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Donishmand arxetipi bo'yicha olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, ushbu obraz har ikki adabiyotda ham bilim, tajriba va ma'naviy yo'l ko'rsatish vositasi sifatida shakllangan. Ingliz adabiyotida Tolkienning Gandalf obrazi ushbu arxetipning yorqin namunasi bo'lsa, o'zbek adabiyotida mazkur model pir, murshid va ustoz obrazlari orqali ifodalanadi.

Shayton arxetipi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar mazkur obrazning ikki adabiy an'anada ham insonning ichki kurashi va axloqiy tanlovini ifodalovchi universal model ekanligini ko'rsatdi. John Miltonning "Paradise lost" asaridagi Satan obrazi ingliz adabiyotidagi Shayton arxetipining eng murakkab shakllaridan biri hisoblanadi. Unda kibr, isyon va hokimiyatga intilish kabi insoniy zaifliklar mujassamlashgan. O'zbek adabiyotida esa shayton obrazi ko'proq inson nafsi va ma'naviy zaiflik ramzi sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot natijalaridan yana biri shundan iboratki, diniy-arxetipik obrazlarning milliy xususiyatlari ularning mazmuniy asosida emas, balki badiiy ifoda shakllarida namoyon bo'ladi. Ingliz adabiyotida bu obrazlar ko'proq xristian teologiyasi, individual qahramon tajribasi va axloqiy tanlov bilan bog'langan bo'lsa, o'zbek adabiyotida ular islomiy tafakkur, tasavvuf falsafasi va komillik g'oyasi bilan uyg'unlashadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot natijasida ingliz va o'zbek adabiyotida diniy-arxetipik obrazlarning shakllanishi va badiiy taraqqiyoti turli tarixiy-madaniy jarayonlar bilan bog'liq holda rivojlanganligi aniqlandi. Ushbu obrazlar adabiy matnda faqat diniy qarashlarning ifodasi sifatida emas, balki insoniyatning axloqiy tajribasi, ma'naviy izlanishlari va dunyoni anglash jarayonini aks ettiruvchi murakkab poetik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, diniy-arxetipik obrazlarning yashovchanligi ularning muayyan davr yoki hudud bilan chegaralanib qolmasligi bilan belgilanadi. Ular har bir yangi adabiy muhitda zamon talablari, ijodkor dunyoqarashi va milliy tafakkur xususiyatlari asosida yangi badiiy mazmun kasb etadi. Shu jihatdan, mazkur obrazlar an'anaviy ramz sifatida saqlanib qolishi bilan birga, turli davr adabiyotida yangicha talqin imkoniyatlarini

ham namoyon qiladi. Qiyosiy tahlil asosida diniy-arxetipik obrazlarning badiiy imkoniyatlari keng ekanligi, ular orqali insonning ichki dunyosi, ma'naviy qarashlari va hayotiy qadriyatlari chuqur yoritilishi xulosaga kelindi. Bunday obrazlar adabiy asarlarda voqealarni rivojlantiruvchi vosita bo'lish bilan bir qatorda, asarning g'oyaviy-falsafiy mazmunini shakllantiruvchi muhim unsur vazifasini bajaradi. Shuningdek, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar adabiyotshunoslik, mifopoetika va madaniyatlararo tadqiqotlar uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligi belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Jung C. G. The Archetypes and the Collective Unconscious. Princeton: Princeton University Press, 1969. – 451 p.
(2). Milton J. Paradise Lost. London, Penguin Classics, 2003, 480 p.
(3). Lewis C.S. The Chronicles of Narnia. London, HarperCollins, 2001, 767 p.
(4). Tolkien J.R.R. The Lord of the Rings. London, HarperCollins, 2007, 1216 p.
(5). Campbell J. The Hero with a Thousand Faces. Princeton: Princeton University Press, 2004, 416 p.
(6). Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. Toshkent, "Yozuvchi", 1990, 544-bet.
(7). Navoiy A. Hayrat ul-abror. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989, 256 bet.
(8). Komilov N. Tasavvuf. Toshkent, "Movarounnahr", 2009, 448-bet.

Qodirov Umidbek Shavkat o'g'li (NukusDPI "O'zbek adabiyoti" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi; E-mail: xonqaimi@mail.com; ORCID: https://t.me/c/2594165025/50/137; UDK 821.512.133.09)

SHE'RIY ASARDA SHAKL VA MAZMUN BIRLIGI: NAZARIY QARASHLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada she'riy asarda shakl va mazmun birligi masalasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. D.Quronov, H.Umurov, I.Sulton, A.Ulug'ov, D.Rahmonova, Q. va M.Yo'ldosh kabi adabiyotshunoslarning qarashlari qiyosiy o'rganilib, ularning bir-birini to'ldiruvchi jihatlari ochib beriladi. Nazariy xulosalar Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Usmon Nosir, Abdulla Oripov va Go'zal Begim she'riyatidan olingan misollar asosida amaliy tasdig'ini topadi. Tadqiqot natijasida shakl faqat mazmunni ifodalovchi tashqi vosita emas, balki mazmunni estetik jihatdan tashkil etuvchi faol poetik omil ekanligi asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *she'riy shakl, badiiy mazmun, poetik uslub, adabiyot nazariyasi, ritm, obrazlar tizimi, individual uslub, o'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyati.*

ЕДИНСТВО ФОРМЫ И СОДЕРЖАНИЯ В ПОЭТИЧЕСКОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ

Аннотация. *В данной статье рассматривается проблема единства формы и содержания в поэтическом произведении в теоретическом и практическом аспектах. Проведён сравнительный анализ взглядов литературоведов Д.Куронова, Х.Умурова, И.Султана, А.Улугова, Д.Рахмоновой, К. и М.Йулдошева, выявлены их взаимодополняющие стороны. Теоретические выводы подтверждаются на примерах поэзии Алишера Навои, Захириддина Мухаммада Бабура, Усмана Насира, Абдуллы Арипова и Гузаль Бегим. В результате исследования обосновывается, что форма является не просто внешним средством выражения содержания, а активным поэтическим фактором, эстетически организующим содержание.*

Ключевые слова: *поэтическая форма, художественное содержание, поэтический стиль, теория литературы, ритм, система образов, индивидуальный стиль, узбекская классическая и современная поэзия.*

THE UNITY OF FORM AND CONTENT IN A POETIC WORK: THEORETICAL PERSPECTIVE

Annotation. *This article analyzes the unity of form and content in poetic works from theoretical and practical perspectives. The views of literary scholars D.Quronov, H.Umurov, I.Sulton, A.Ulug'ov, D. Rahmonova, and Q. & M.Yo'ldash are comparatively examined, revealing their complementary aspects. Theoretical conclusions are substantiated through examples from the poetry of Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Usmon Nosir, Abdulla Oripov, and Go'zal Begim. The study demonstrates that poetic form is not merely an external means of expressing content, but an active poetic factor that aesthetically organizes content.*

Keywords*: poetic form, artistic content, poetic style, literary theory, rhythm, system of images, individual style, Uzbek classical and modern poetry.*